

SUG'URTA ZAXIRALARINI VALYUTALAR KESIMIDA SHAKLLANTIRISH VA HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

N.I.Najimova

SamISI tayanch doktorant

nigoranajimova743@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21451052>

Annotatsiya: mazkur maqolada sug'urta zaxiralarini valyutalar kesimida shakllantirish va hisobga olishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinib, xalqaro standartlar asosida takomillashtirilgan hisob metodikasi va analitik hisob yondashuvi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta zaxiralari, valyutalar kesimi, funksional valyuta, chet el valyutasi, sug'urta majburiyati, analitik hisob, sintetik hisob, 17-son MHXS, 21-son BHXS, valyuta riski.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования и учета страховых резервов в валютном выражении, а также предлагается усовершенствованная методология учета и аналитический подход к учету, основанные на международных стандартах.

Ключевые слова: страховые резервы, валютная структура, функциональная валюта, иностранная валюта, страховое обязательство, аналитический учет, синтетический учет, МСФО № 17, МСБУ № 21, валютный риск.

Abstract: this article analyzes the theoretical and practical aspects of the formation and accounting of insurance reserves in terms of currencies, and proposes an improved accounting methodology and analytical accounting approach based on international standards.

Keywords: insurance reserves, currency breakdown, functional currency, foreign currency, insurance obligation, analytical accounting, synthetic accounting, IFRS 17, IAS 21, currency risk.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda sug'urta zaxiralarini to'g'ri shakllantirish, baholash va hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sug'urta shartnomalari chet el valyutasida tuziladigan, sug'urta mukofotlari va tovon to'lovlari turli valyutalarda amalga oshiriladigan sharoitda zaxiralarni qaysi valyutada hisoblash masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylanmoqda. Sug'urta majburiyatlarini faqat milliy yoki funksional valyutada aks ettirish ularning haqiqiy valyuta tarkibi, valyuta kursi o'zgarishiga sezgirliigi hamda aktivlar bilan valyutaviy muvofiqligini to'liq baholash imkonini bermaydi. Shu sababli sug'urta zaxiralarining iqtisodiy valyutasi, analitik hisob valyutasi va moliyaviy hisobot valyutasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslash zarurati yuzaga keladi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida chet el valyutasida ifodalangan sug'urta majburiyatlarini kelajakdagi pul oqimlari amalga oshiriladigan valyutada baholash, keyinchalik esa ularni tashkilotning funksional valyutasiga qayta hisoblash yondashuvi qo'llaniladi. Biroq milliy me'yoriy hujjatlarda sug'urta zaxiralarini valyutalar kesimida hisobga olish, ularni hisobot sanasidagi kurs bo'yicha qayta baholash hamda kurs farqlarini aktuar o'zgarishlardan alohida aks ettirish tartibi yetarli darajada aniqlashtirilmagan. Mazkur holat sug'urta tashkilotlarida zaxiralarni shartnoma majburiyatlari bajariladigan valyutada analitik hisobga

olish, sintetik hisob va moliyaviy hisobotda esa funksional valyutada aks ettirishga asoslangan takomillashtirilgan hisob metodikasini ishlab chiqish zarurligini belgilaydi.

Sug'urta zaxiralarini shakllantirish va baholash sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi, to'lovga qobiliyati hamda sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishini ta'minlovchi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sug'urta shartnomalari chet el valyutasida tuzilishi va sug'urta to'lovlari turli valyutalarda amalga oshirilishi sharoitida sug'urta zaxiralarini qaysi valyutada hisoblash masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Xalqaro va milliy ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sug'urta zaxirasining iqtisodiy valyutasi bilan moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan funksional valyuta o'rtasida farq mavjud bo'lib, ushbu masala hisob metodologiyasida alohida yondashuvni talab etadi [1; 2].

Sug'urta zaxiralarining iqtisodiy mohiyatini tadqiq etgan olimlar ularni kelajakda yuzaga keladigan sug'urta majburiyatlarini qoplash uchun shakllantiriladigan baholangan majburiyat sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, zaxiraning miqdori faqat olingan sug'urta mukofotiga emas, balki kelajakdagi pul oqimlari, sug'urta hodisalari ehtimoli, zararlarning kutilayotgan hajmi hamda aktuar baholash natijalariga bog'liq ravishda aniqlanishi lozim [3; 4]. Shuning uchun sug'urta zaxirasining valyutasini faqat sug'urta mukofoti qaysi valyutada olingani bilan belgilash ilmiy jihatdan yetarli asosga ega emas.

17-son MHXS "Sug'urta shartnomalari" standartida sug'urta majburiyatlari kelajakdagi pul oqimlari, diskontlash va risk tuzatmasi asosida baholanishi belgilangan bo'lsa, ularning funksional valyutada aks ettirilishi 21-son BHXS "Valyuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'siri" standartiga muvofiq amalga oshirilishi ko'rsatilgan [1; 2]. MHXS talqinlari qo'mitasi tomonidan berilgan rasmiy izohlarda ko'p valyutali sug'urta shartnomalari guruhi monetar modda sifatida baholanib, hisobot davri yakunida amaldagi valyuta kursi bo'yicha funksional valyutaga qayta hisoblanishi lozimligi qayd etilgan [5]. Mazkur yondashuv sug'urta majburiyatining iqtisodiy mohiyatini saqlab qolish bilan bir qatorda moliyaviy hisobotning taqqoslanuvchanligini ham ta'minlaydi.

21-son BHXS talablariga ko'ra, chet el valyutasida ifodalangan monetar aktiv va majburiyatlar har bir hisobot sanasida yakuniy valyuta kursi bo'yicha qayta baholanadi va yuzaga kelgan kurs farqlari moliyaviy natijalarda aks ettiriladi [2]. Shu nuqtai nazardan sug'urta zaxiralari ham, agar ular chet el valyutasida bajariladigan majburiyatlarni ifodalasa, dastlab asl valyutada aniqlanib, keyinchalik funksional valyutaga qayta hisoblanishi lozim. Bunday yondashuv aktuar o'zgarishlar bilan valyuta kursi ta'sirini bir-biridan ajratish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunida sug'urta mukofotlari milliy yoki chet el valyutasida to'lanishi mumkinligi belgilangan bo'lib, sug'urtalovchilarga chet el valyutasida amalga oshiriladigan sug'urta operatsiyalarini yuritish huquqi berilgan [6]. Biroq mazkur qonunda sug'urta zaxiralari qaysi valyutada hisoblanishi va ularni qayta baholash metodikasi batafsil yoritilmagan.

"Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi nizom sug'urta zaxiralarini shakllantirishning umumiy tartibini belgilaydi, biroq chet el valyutasidagi sug'urta shartnomalari bo'yicha zaxiralarni dastlabki baholash, hisobot sanasida qayta hisoblash hamda kurs farqlarini hisobga olish mexanizmini to'liq tartibga solmaydi [7]. Natijada amaliyotda

ayrim sug'urta tashkilotlari barcha zaxiralarni bevosita milliy valyutada hisoblashni afzal ko'rsalar, boshqalari analitik hisobda shartnoma valyutasini ham yuritadilar.

Sug'urtalovchilar uchun amaldagi schyotlar rejasida sug'urta zaxiralari sintetik hisobda milliy valyutada aks ettirilishi nazarda tutilgan bo'lsa-da, analitik hisobni valyutalar kesimida yuritishni taqiqlovchi norma mavjud emas [8]. Shu sababli xalqaro standartlar talablariga mos ravishda sintetik hisobni funksional valyutada, analitik hisobni esa shartnoma majburiyati bajariladigan valyutada tashkil etish imkoniyati mavjud.

Valyuta riski bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda sug'urta tashkilotlarining aktivlari va majburiyatlari turli valyutalarda shakllanishi valyuta nomuvofiqligi (currency mismatch)ni yuzaga keltirishi va bu sug'urtalovchining kapital yetariligi hamda to'lovga qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi asoslangan [9; 10]. Xalqaro Aktuarlar Assotsiatsiyasi ham aktivlar va majburiyatlarni valyutalar kesimida muvofiqlashtirish sug'urta risklarini boshqarishning muhim elementi ekanligini ta'kidlaydi [11].

Smith tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sug'urta hodisasi yuz berishi bilan sug'urta to'lovi amalga oshirilguniga qadar valyuta kursining o'zgarishi sug'urta tashkilotining yakuniy xarajatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligi qayd etilgan [12]. Tasche esa valyuta riskining kredit va sug'urta risklari bilan o'zaro bog'liqligini matematik modellar asosida isbotlab, majburiyatlarning asl valyutasini hisobda saqlash risklarni aniq baholash imkonini berishini ko'rsatgan [13].


O'rganilgan ilmiy manbalar tahlili sug'urta zaxiralarini hisobga olish bo'yicha uch xil yondashuv mavjudligini ko'rsatdi. Birinchi yondashuvda zaxira sug'urta mukofoti olingan valyutada shakllantiriladi [3]. Ikkinchi yondashuvda barcha sug'urta zaxiralari faqat funksional valyutada hisobga olinadi [8]. Uchinchi yondashuv esa sug'urta majburiyatlarini kelajakdagi pul oqimlari amalga oshiriladigan valyutada baholash, analitik hisobda asl valyutadagi miqdorini saqlash hamda sintetik hisob va moliyaviy hisobotda funksional valyutada aks ettirishni nazarda tutadi [1; 2; 5]. Xalqaro standartlar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar aynan uchinchi yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi.

Shunday qilib, adabiyotlar va me'yoriy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, amaldagi milliy me'yoriy bazada sug'urta zaxiralarining valyutalar kesimidagi analitik hisobini yuritish hamda valyuta kursi ta'sirini aktuar o'zgarishlardan alohida hisobga olish metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur holat sug'urta tashkilotlarida sug'urta zaxiralarini shartnoma bo'yicha kelajakdagi pul oqimlari amalga oshiriladigan valyutada analitik hisobga olish, sintetik hisobda esa funksional valyutada aks ettirishga asoslangan takomillashtirilgan hisob modelini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi [1; 2; 5; 7; 11].

Hozirgi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalarining aksariyatida xorijiy valyutada tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta zaxiralari alohida xorijiy valyutada shakllantirilmaydi. Amaldagi amaliyotda sug'urta mukofotlari va sug'urta zaxiralari odatda milliy valyutada hisobga olinadi. Natijada sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatning haqiqiy valyuta tarkibi buxgalteriya hisobida to'liq aks ettirilmaydi. Bunday yondashuv sug'urta zaxirasining iqtisodiy mohiyatini buzadi, chunki kelajakdagi sug'urta to'lovlari xorijiy valyutada amalga oshirilishi mumkin bo'lgan holatda zaxira faqat milliy valyutada yuritiladi.

Mazkur holat sug'urta hodisasi yuz berganda to'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdorini aniqlashda qo'shimcha noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Sug'urta zaxiralari hisobot sanasida xorijiy valyuta kursining o'zgarishi hisobga olinmaganligi sababli, tovon to'lovlarini amalga oshirish vaqtida zaxira summasi haqiqiy majburiyatni qoplash uchun yetarli bo'lmasligi yoki aksincha ortiqcha shakllanishi mumkin. Natijada sug'urtalovchining moliyaviy natijalari, sug'urta zaxiralarining ishonchliligi hamda to'lovga qobiliyatini baholash ko'rsatkichlari buziladi. Bundan tashqari, aktuar hisob-kitoblar natijalari bilan valyuta kursining o'zgarishi ta'siri birlashtirib yuboriladi va zaxira o'zgarishining haqiqiy sabablari aniqlanmaydi.

Shuningdek, sug'urta zaxiralarining valyutalar kesimida yuritilmasligi sug'urta kompaniyalarida valyuta riskini samarali boshqarish imkoniyatini cheklaydi. Aktivlar va sug'urta majburiyatlari turli valyutalarda shakllangan bo'lsa-da, ularning o'zaro muvofiqligi tahlil qilinmaydi. Bu esa valyuta nomuvofiqligi (currency mismatch) darajasining oshishiga, moliyaviy barqarorlikning pasayishiga hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga to'liq mos kelmaydigan hisob tizimining shakllanishiga olib keladi. Shu sababli sug'urta zaxiralarini shartnoma bo'yicha majburiyat bajariladigan valyutada analitik hisobga olish va moliyaviy hisobotda funksional valyutada aks ettirishga asoslangan takomillashtirilgan hisob metodikasini joriy etish zarur.



1-rasm. Sug'urta zaxiralarini valyutalar kesimida shakllantirish va hisobga olishni tizim

Taklif etilayotgan model sug'urta zaxiralarini shakllantirish jarayonini sug'urta shartnomasining valyutasidan boshlab moliyaviy hisobotgacha yagona tizim asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda sug'urta zaxiralari dastlab shartnoma bo'yicha majburiyat bajariladigan valyutada hisoblanadi, keyinchalik valyutalar kesimida analitik hisob yuritiladi, hisobot sanasida amaldagi kurs bo'yicha qayta baholanadi va sintetik hisob hamda moliyaviy hisobotda funksional valyutada aks ettiriladi. Mazkur yondashuv valyuta riskini alohida nazorat qilish, kurs farqlarini aktuar o'zgarishlardan ajratish, aktivlar va majburiyatlarning valyutaviy muvofiqligini ta'minlash hamda sug'urta zaxiralarining ishonchliligini oshirish imkonini beradi. Bu esa sug'urta tashkilotlarida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga mos, shaffof va riskga yo'naltirilgan hisob tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sug'urta amaliyotida xorijiy valyutada tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta zaxiralari, asosan, funksional (milliy)

valyutada hisobga olinmoqda. Mazkur yondashuv sug'urta majburiyatlarining haqiqiy valyuta tarkibini to'liq aks ettirmasligi sababli valyuta kursi o'zgarishining sug'urta zaxiralari va sug'urta tovonlari miqdoriga ta'sirini aniq baholash imkonini cheklaydi. Natijada sug'urta zaxiralari miqdori bilan haqiqiy sug'urta majburiyatlari o'rtasida tafovut yuzaga kelishi, sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligi va to'lovga qobiliyatini baholashda noaniqliklar paydo bo'lishi mumkin.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan 17-son MHXS va 21-son BHXS talablari hamda ilmiy adabiyotlar tahlili sug'urta zaxiralari dastlab sug'urta shartnomasi bo'yicha kelajakdagi pul oqimlari amalga oshiriladigan valyutada baholanishi, analitik hisobda ushbu valyutada yuritilishi va moliyaviy hisobotda funksional valyutaga qayta hisoblangan holda aks ettirilishi lozimligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib, sug'urta zaxiralarini valyutalar kesimida hisobga olish metodologiyasini joriy etish valyuta riskini aniq baholash, aktiv va majburiyatlarning valyutaviy muvofiqligini ta'minlash, sug'urta zaxiralari ishonchligini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos hisob tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi amaldagi nizomga xorijiy valyutada tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta zaxiralarini shartnoma majburiyati bajariladigan valyutada hisoblash va analitik hisobini yuritish tartibini belgilovchi normalarni kiritish tavsiya etiladi.
2. Sug'urta tashkilotlari buxgalteriya hisobi schyotlar rejasida sug'urta zaxiralari bo'yicha valyutalar kesimidagi analitik subschyotlarni (masalan, 8010/USD, 8010/EUR, 8020/USD va boshqalar) joriy etish hamda ularni hisobot sanasida funksional valyutaga avtomatik qayta hisoblash mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
3. Sug'urta zaxiralarining hisobot davridagi o'zgarishini aktuar omillar va valyuta kursi ta'siri bo'yicha alohida komponentlarga ajratib hisobga olish hamda moliyaviy hisobot izohlarida valyuta riskining sug'urta majburiyatlariga ta'sirini alohida ochib berish amaliyotini joriy etish zarur.
4. Sug'urta tashkilotlarida valyuta riskini boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida sug'urta zaxiralari va ularni qoplovchi aktivlarning valyutaviy muvofiqligini muntazam monitoring qilish, ochiq valyuta pozitsiyasini baholash hamda zaruratga ko'ra hedjirlash va qayta sug'urtalash mexanizmlaridan foydalanishni nazarda tutuvchi ichki metodikani ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alfonsi, A., Cherchali, A., & Infante Acevedo, J. A. (2019). A full and synthetic model for asset-liability management in life insurance, and analysis of the SCR with the standard formula.
2. Das, U. S., Lu, Y., Papaioannou, M. G., & Petrova, I. (2012). Sovereign risk and asset and liability management. IMF Working Papers, 2012(241), 1–46.
3. Eisenberg, J., & Palmowski, Z. (2020). Optimal dividends paid in a foreign currency for a Lévy insurance risk model. Journal of Optimization Theory and Applications, 186, 669–694.
4. International Accounting Standards Board. (2024). IAS 21: The effects of changes in foreign exchange rates. IFRS Foundation.

5. International Accounting Standards Board. (2024). IFRS 17: Insurance contracts. IFRS Foundation.
6. International Actuarial Association. (2025). IAA risk book: Asset liability management techniques and practices for insurance companies. IAA.
7. International Association of Insurance Supervisors. (2019). Currency risk: Public consultation comments. IAIS.
8. IFRS Interpretations Committee. (2022). Multi-currency groups of insurance contracts: IFRS 17 and IAS 21. IFRS Foundation.
9. Smith, J. N. (2026). Insurance and exchange rate risk. Casualty Actuarial Society Forum.
10. Tasche, D. (2007). Incorporating exchange rate risk into probabilities of default and asset correlations. arXiv.
11. O'zbekiston Respublikasi. (2021). Sug'urta faoliyati to'g'risidagi O'RQ-730-son Qonun.
12. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2008). Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi nizom. 1882-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.
13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2008). Sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. 1813-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.
14. World Bank. (2014). Managing currency composition under an asset-liability management framework. World Bank Group.
15. Ito, H., McCauley, R. N., & Chan, T. (2019). The currency composition of foreign exchange reserves. BIS Working Papers, No. 828.